



## O'ZBEKİSTONDA MEHMONXONA BİZNESİNİNG RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Mardonova Dilrabo Shirinboyevna**  
*"Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti tayanch doktoranti*

doi: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a38](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a38)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Unda xorijiy sarmoyalarning ko'payishi, turizmni rivojlantirish bo'yicha hukumat tashabbuslari, hashamatli turar joylarga o'tish, tarixiy binolarni saqlash va barqarorlikka e'tibor kuchayib borayotgani haqida so'z boradi. Bu tendensiyalar O'zbekistonda mehmonxona sanoatining o'sishi va takomillashuviga hissa qo'shib, uni mahalliy va xalqaro sayyoohlар uchun jozibador manzilga aylantiradi. Bundan tashqari ushbu maqolada O'zbekistonda mehmonxona biznesi rivojlanishining umumiy tendensiyasi tahlil qilingan. O'zbekistonda mehmonxona biznesi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ushbu maqola mehmonxona sanoatini shakllantirishning asosiy tendensiyalarini ko'rib chiqadi.

**Kalit so'zlar:** mehmonxona, trend, yuqori sifat, bozor, optimizatsiya, turistlar xarajatlari.

### ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Мардонова Дилярабо Ширинбоевна**  
*Докторант Международного Университета туризма и культурного наследия «Шелковый путь»*

**Абстракт:** В данной статье рассматриваются тенденции развития гостиничного бизнеса в Узбекистане. В нем говорится об увеличении иностранных инвестиций, правительственные инициативах по развитию туризма, переходе к роскошному жилью, сохранении исторических зданий и растущем внимании к устойчивому развитию. Эти тенденции способствуют росту и совершенствованию гостиничного бизнеса в Узбекистане, что делает его привлекательным местом для отечественных и международных туристов. Кроме того, в данной статье анализируется общая тенденция развития гостиничного бизнеса в Узбекистане. Гостиничный бизнес в Узбекистане в последние годы значительно развивается. В данной статье рассмотрены основные тенденции, формирующие гостиничный бизнес.

**Ключевые слова:** отель, тренд, высокое качество, рынок, оптимизация, туристические расходы.

### DEVELOPMENT TENDENCIES OF THE HOTEL BUSINESS IN UZBEKISTAN

**Mardonova Dilrabo Shirinboyevna**  
*"Silk Road" international University of Tourism and Cultural Heritage foundation doctoral student*

**Abstract.** This article examines the development trends of the hotel business in Uzbekistan. It cites increased foreign investment, government initiatives to promote tourism, a shift to luxury accommodation, preservation of historic buildings and a growing focus on sustainability. These trends contribute to the growth and improvement of the hotel industry in Uzbekistan, making it an attractive destination for domestic and international tourists. In addition, this article analyzes the general trend of hotel business development in Uzbekistan. The hotel business in Uzbekistan has been developing significantly in recent years. This article examines the main trends shaping the hotel industry.

**Key words:** hotel, trend, high quality, market, optimization, tourist expenses.

**Kirish.** Turizm iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm mamlakatda iqtisodiy o'sish va aholi bandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy faoliyat turidir, chunki u iqtisodiyotning transport, mehmonxona va restoran xizmatlari, savdo, qurilish, iste'mol tovarlari va bir qancha tarmoqlarga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, turizm sohasi O'zbekistonning dunyodagi nufuzini mustahkamlash, O'zbekistonni butun dunyo xalqlariga tanitish, qadriyatlarimizni shakllantirish va ko'p asrlik madaniy almashtinuv, tillar xilma-xilligi va buniyodkorlik samarasi bo'lgan mamlakat jozibadorligini oshirishga ijobiy hissa qo'shuvchi sohalardan biridir.

Hozirda O'zbekistonda turizm sohasi yuqori tezlikda rivojlanishda davom etmoqda. Davlat

tomonidan turistik infratuzilmani qurishga katta e'tibor berilmoqda. 2022-yil holatida jami 1105 ta mehmonxona bo'lib, 188 tasi 1 ta yulduzli, 69 tasi 2 yulduzli, 33 tasi 3 yulduzli, 16 tasi 4 yulduzli va 4 tasi besh yulduzli hisoblanadi[16].

Umuman olganda, O'zbekiston turistlarni o'ziga xos tabiat, iqtisodiy va siyosiy barqarorligi, tovar va mahsulotlarning boshqa davlatlardagiga nisbatan arzonroq ekanligi, qadimiy tarixi va qiziqarli urf-odatlari, madaniyati bilan o'ziga jalb qiladi. Bugungi kunda turli klasslardagi 5 milliondan ortiq turist har yili O'zbekistonga tashrif buyuradi. Turistlarni klasslarga ajratish, odatda, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati va shunga mos narx-navoga bog'liq hisoblanadi. Turistik xizmatlarni sifatiga qarab darajalash har xil davlatlarda turlicha amalga oshiriladi. O'zbekistonda turoperator va turagentlar turni sotishda shartli ravishda turistik xizmatlarni luks, birinchi klass, turistik klass va ekonom klass etib belgilaydilar.

Turistik xizmatlarni klasslarga bo'lgan holda sotish iste'molchilarni segmentatsiyalash va har bir segment darajasida narx belgilash imkonini beradi. Respublikaga tashrif buyurayotgan turistlar orasida so'nggi yillarda birinchi va luks klass turistlar ulushi oshib bormoqda. Masalan, Toshkent shahridagi 4-5 yulduzli mehmonxonalarida yilning deyarli hamma oylarida nomerlar tanqisligi kuzatiladi. Shu boisdan Samarqand shahrida qurilgan 2 ta besh yulduzli va 2 ta to'rt yulduzli mehmonxonalarining qurilishi aynan ko'p pul sarflashga tayyor va yuqori sifatli xizmat ko'rsatilishni xohlaydigan turistlar ehtiyojini ta'minlashga qaratilgan[15].

**Adabiyotlar sharhi.** Mehmonxonalarda turistik xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlash va ko'rsatish sifat darajasi bilan bog'liq muammlar xorijlik olimlardan L.Duayer, Ch.Kim, A.Pun, P.Keller, T.Biger, P.Krugman, E.Bordas, B.Richi, J.Krauch, M.Porter [3] kabilar tomonidan o'rjanilgan. Quyida mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liq bir nechta nashrlar keltirilgan:

Elena Yuryevna Nikolskaya, Leonid Alekseyevich Popov, Ivan Petrovich Kulgachev, Ekaterina Arturovna Blinova, Marat Venerovich Arifullin tomonidan "Rossiya Federatsiyasida mehmonxonalarini rivojlantirish tendensiyalari" maqolasida Rossiya Federatsiyasining mehmonxona biznesi imkoniyatlari hamda uning rivojlanish tendensiyalari chuqur yoritilib berilgan[4].

E.Y.Nikolskaya, N.I.Kovaleva, M.E.Uspenskaya, N.I.Makshakova "Mehmonxona xizmatlari sifatini innovatsion yaxshilash" mavzusida ilmiy ish olib borganlar. Maqola innovatsion asosda mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish yonda-

shuvlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Mehmonxona xizmatlari bozorida imkon qadar ko'proq mijozlarni jalb qilish maqsadida innovatsiyalar muvaffaqiyatli joriy etilayotgani aniqlangan. Bularning barchasi mehmonxonalar qurishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, tashrif buyuruvchilarning turli talablarini qondiradigan yangi bozor segmentlarining paydo bo'lishini ta'minlaydi. Mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish uchun innovatsion asosda mehmonxona biznesini rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish zarurligi isbotlangan. Innovatsiyalarni joriy etish davlat darajasida ham, alohida mehmonxonalar darajasida ham amalga oshirilishi kerakligi belgilandi. Keyingi innovatsion o'sish mehmonxona ko'chmas mulki jahon bozorida mehmonxona xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi. Biroq bu mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat yaxshilanganda va mehmonxona biznesida investitsiya jozibadorligi uchun shart-sharoitlar yaratilgandagina o'z aksini topadi [5].

Malenko, Valeriya Pavlivna "Mehmonxona va restoran biznesini rivojlantirishning zamona-viy tendensiyalari" mavzusida ilmiy ish olib borganlar. Maqolada mehmonxona va restoran biznesining turizmda turgan o'rni va uni rivojlantirishning zamona-viy tendensiyalari keng targ'ib qilingan[6]. H.M.Chepurda, S.O.Yurchenko "Olyi boshqaruvning asosiy dunyo tendensiyalari" mavzusida ilmiy ish qilganlar. Ilmiy ishda mehmonxona va restoran biznesi turizm sektorining tarkibiy qismi hisoblanishi, aholining uy-joy, oziq-ovqatga bo'lgan turistik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan transport va ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar haqida ma'lumotlar berilgan. Mehmonxona va restoran biznesi zamona-viy biznesning ajralmas qismidir. Ko'pchilik uchun mamlakatlarda bu soha asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Xarakterli xususiyatlaridan biri – mehmonxona va restoran biznesining asosiy jihat shundaki, uning o'sishi hech qanday sharoitda to'xtamaydi. Har bir mamlakat rivojlanishi uchun o'ziga xos resurslarga ega biznes hisoblanadi. Bundan tashqari maqolada nafaqat ichki bozorlarda raqobatbardoshlikning muhimligi, balki tashqi bozorlarda ham uning ahamiyati haqida so'z borgan. Ko'plab raqobatchilar orasida yetakchi bo'lish uchun restoranlar va mehmonxonalar menejerlari zamon talablariga javob beradigan yangidan yangi tendensiyalarni ishlab chiqishlari haqida keng ma'lumotlar berilgan [7].


Respublikamizda K.X.Abdurahmonov, N.T.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, M.R.Boltaboyev, M.M.Muxammedov, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova [8] va boshqa olimlar tomonidan

ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu olimlarning ilmiy izlanishlarida turizmni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan, shu bilan birga, aynan mehmonxona biznesining samaradorlik masalalari ko'rib chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiya.** Ushbu tadqiqotda solishtirma tahlil, grafiklar yordamida mehmonxona biznesida umumiy trendlar tahlil qilin-gan.

**Tahlil va natijalar.** 2018-yilda turistik xizmatlar eksporti 8 oyda 666,9 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2017-yilgi xuddi shu ko'rsatkichdan ikki barobar ko'pdir. 2017-yilning o'zida 101 ta joylashtirish vositalari qurilgan, ularda jami 1355 ta nomer bo'lgan[18].


O'zbekistonda mehmonxonalar daromadla-ri turoperatorlar bilan hamkorlikka ham bog'liq hisoblanadi. Umuman olganda, yurtimizda mehmonxonalar yil bo'yи o'rtacha 56 %ga to'ladi. Turistlar uchun bir kunlik o'rtacha turar joy narxi 69 AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, turizm sohasi uchun imtiyozli kreditlar, viza reji-mining erkinlashtirilishi mehmonxona biznesi-ning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilmoqda. 2022-yilda O'zbekistonda mehmonxonalarda nomerlar soni 50000 dan oshib ketdi. 2022-yilda Toshkentda 1500 nomer, Samarqandda 1600 ta nomer va Buxoroda 1400 ta nomer va Xivada 350 ta no-merdan iborat o'nlab mehmonxonalar quril-gan[15].



1-rasm. Mehmonxonalar soni dinamikasi[16]

2022-yilda tashrif buyurgan turistlar soni 5 milliondan oshib ketdi. Shu bilan birga, turistik xizmatlar eksporti 1 milliard AQSh dollaridan

oshdi. Ichki turistlar soni esa 14 millionga yetdi[18].



2-rasm. Mahalliy turistlar va xorijiy turistlar xarajatlari[16]

2-rasmda mahalliy turistlar va xorijiy turistlar xarajatlari 2011-2022-yillar uchun dinamikasi keltirilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, ichki turistlar xarajatlari hajmi barqaror o'sib borgan bo'lsa, xorijiy turistlar qilgan xarajatlar hajmi esa yillar kesimida nisbatan kam o'sgan. Shunday qilib, milliy turizm bozorida ichki turistlar tomonidan bozor talabi barqaror o'sganligi va korxonalar ham moslashishi kerakligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Shu bilan birga, oxirgi yillarda O'zbekistonda ham korporativ dam olishni tashkil etish ommalashmoqda. Asosan, banklar, dori firmalari, turli yirik kompaniyalarning filial-

lari turli xil tadbirlarni tashkil etadi. Bir oyda O'zbekistonda yirik firmalar tomonidan 9,3 ta korporativ tadbir, o'ttacha 53 kishi ishtirokida tashkil etiladi[17]. Eng ko'p tadbirlar iyul va avgust oylariga to'g'ri keladi. Ya'ni bu mehmonxonalar va boshqa turistik korxonalar uchun yangi imkoniyalarni ochib beruvchi bozor deyish mumkin.

Quyidagi 1-jadvalda turistlarni eng ko'p jalgiluvchi beshta lokatsiyada mehmonxonalarning to'lganlik ko'rsatkichlari va bir kunlik bir kishiga turish xarajatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

### 1-jadval

**Mehmonxonalarning beshta lokatsiya kesimida to'lganlik darajasi va narxlari (2021-yil)[19]**

Viloyat	To'lganlik darajasi	To'lganlik darajasining yillik o'sish sur'ati	Bir kishi uchun bir kunlik xarajat	Narxlarning o'sish sur'ati
Toshkent sh.	62 %	13 %	\$ 87	8 %
Samarqand	61 %	14 %	\$ 66	6 %
Buxoro	53 %	17 %	\$ 55	7 %
Xiva	45 %	34 %	\$ 40	3 %
Toshkent viloyati	45 %	10 %	\$ 76	8 %

*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallifishlanmasi.

1-jadvaldan Toshkent shahrida mehmonxonalarning to'lishi eng yuqori ko'rsatkich 62 %ni qayd etgan. Samarqand viloyatida ham o'sish sur'atlari ancha yuqori ekanligi ko'rinish turibdi. Garchi, Xivada mehmonxonalarning to'lganlik darajasi 45 % bo'lsa-da, asta-sekin vaziyat yaxshilanmoqda, bir necha yilda Xivada bu ko'rsatkich 70 %dan oshishi kutilmoxda. Toshkent viloyati o'zining sanatoriylari va dam olish joylari bilan mashhur hisoblanadi. Bu yerda ham nomerlarning to'lganlik darajasi 45 % atrofida, ammo o'ttacha narxlar yuqoriroq 76 AQSh dollarini tashkil etgan. 1-jadvaldan Buxoro va Xiva shaharlari narxlarning pastligi tufayli ko'proq turistlarni jalgilish imkoniyatiga egaligini ko'rish mumkin. Joylashtirish xizmatlari narxlari turistlar tanlovida muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, makrodarajada O'zbekistonda mehmonxona biznesining rivojlanish salohiyatini yuqori baholash mumkin. Buni 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ham tasdiqlab turibdi. Ammo hali-hamon mehmonxonalarning to'lganlik darajasi past holda saqlanib turibdi. Bu muammoni bartaraf etish

uchun quyidagilarni amalga oshirishni taklif qilamiz:

1. Mehmonxonalarning texnik ta'minotini yaxshilash uchun audit tekshiruvlari o'tkazib, texnik yangilanishlar uchun subsidiya ajratish.

2. Hududlarda har oy keng miqyosdagи ommaviy tadbirlarni tashkil etishni yo'lga qo'yish.

3. Korporativ tadbirlar bozoriga mehmonxonalarni qiziqтирish, bu bozorning imkoniyatlari bilan tanishtirish.

4. Xalqaro turistlarni jalgilish uchun internet reklamadan keng foydalanish.

5. Mehmonxonalarda turistik xizmatlar si-fati nazoratini yaxshilash, yulduzlar berish mexanizmini takomillashtirish.

Yuqorda keltirilgan takliflar makrodarajada mehmonxona biznesining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir qiladi. Xususan, har oyda ommaviy tadbirlarni tashkil etish turistlar sonining oshishiga olib kelsa, korporativ tadbirlar bozorini rivojlantirish mehmonxonalar uchun yangi daromad manbayini yaratadi.

#### ***Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. Dwyer L., Kim Ch. Destination Competitiveness: Determinants and Indicators. Current Issues in Tourism Vol. 6, 2003; Poon, A. Tourism, Technology and Competitive Strategies. CAB International, New York, 1993.
2. Keller P., Bieger T. Innovation in tourism-creating customer value: 55<sup>th</sup> congress 2005, Brainerd, USA.
3. Dwyer L., Kim Ch. Destination Competitiveness: Determinants and Indicators. Current Issues in Tourism Vol. 6, 2003; Poon A. Tourism, Technology and Competitive Strategies. CAB International, New York, 1993; Keller P.,

Bieger T. *Innovation in tourism-creating customer value: 55<sup>th</sup> congress 2005, Brainerd, USA; Krugman P. Competitiveness: a Dangerous obsession. In: Competitiveness. An International Economics Reader. – N.Y.: Foreign Affairs, 1994, P. 1-17; Bordas E. Competitiveness of Tourist Destinations in long distance markets. The Economics of Tourism Destinations. Burlington: Elsevier, 1994; Crouch J. & Ritchie B. The competitive destination- a sustainable tourism perspective. – Cambridge: CabiPublishing, 2003; Портнер М. Конкуренция. – М.: Вильяме, 2000. С. 174-191.*

4. *Hotel Development Tendencies in the Russian Federation, Elena Yurievna Nikolskaya, Leonid Alekseevich Popov, Ivan Petrovich Kulgachev, Ekaterina Arturovna Blinova, Marat Venerovich Arifullin. Opcion, Año 35, № Especial 20 (2019):2899-2921 ISSN 1012-1587/ISSN: 2477-9385.*

5. *Nikolskaya E.Y., Kovaleva N.I., Uspenskaya M.E., Makshakova N.I., Lysoivanenko E.N. & Lebedev K.A. (2018). Innovative quality improvements in hotel services, European Research Studies Journal, 21(2).*

6. *Malenko, Valeria Pavlivna. Modern tendencies of hotel and restaurant business development. 2018.*

7. *Chepurda H.M. Doctor of Historical Sciences, Professor, Tourism, Hotel and Restaurant Business Department Chair Yurchenko S.O., fifth year student, specialty «Tourism» Cherkasy State Technological University. 2019.*

8. *Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. – 386 б.; Пўлатов М.Э., Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма. Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. – 248 с.; Тухлиев И. Туризм асослари. – Самарқанд: СамИСИ, 2010. – 271 б.; Тухлиев И., Кудратов Ф., Пардаев М. Туризмни режалаштириш. Дарслик. – Т.: Иқтисод ва молия, 2008. – 262 б.; Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. Электрон дарслик. – Т., 2017. – 74 б.; Мухаммедов М. ва бошқалар. Минтақа иқтисодиётининг замонавий муаммолари. Монография. – Т.: LESSON PRESS, 2020; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. // Иқт. фан. докторлик диссертацияси автoreферати. – Самарқанд: СамИСИ, 2017. – 96 б.*

9. *Пўлатов М.Э., Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма. Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. – 248 с.*

10. *Tuxliyev I. Turizm asoslari. – Samarqand: SamISI, 2010. – 271 b.*

11. *Tuxliyev I., Qudratov F., Pardayev M. Turizmni rejalaشتirish. Darslik. – T.: Iqtisod va moliya, 2008. - 262 b.*

12. *Boltaboyev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Elektron darslik. – T., 2017. – 74 b.*

13. *Muxammedov M. va boshqalar. Mintaqal iqtisodiyotining zamonaviy muammolari. Monografiya. – Т.: LESSON RRESS, 2020.*

14. *Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. // Iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamISI, 2017. – 96 b.; Канторович Л.В. Математические методы организации планирования производства. // – Ленинград: Издание Ленинградского государственного университета, 1939.*

15. <https://uzbektourism.uz/news>

16. *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari, http://stat.uz*

17. <https://www.rbasia.uz/>

18. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>

19. *Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*



### МЕХМОНХОНА ВА УМУМИЙ ОВКАТЛАНISH КОРХОНАЛАРИ FAOLIYATINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR



[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a39](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a39)

**Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich,**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
i.f.d. PhD

**Annotatsiya.** Maqolada mehmonxona va umumiyy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishni ekonometrik tadqiq etishning zamonaviy uslubiy yondashuvlari bilan bog'liq muhim jihatlar bayon etilgan. Xususan, yashash joy va umumiyy ovqatlanish korxonalar faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun ko'rsatkichlarning guruhlangan tizimi, korxonalar faoliyatini tahlil qilish tasnifining mezonlar bo'yicha ssenariysi, rivojlantirishning sinergetik omillar to'plamini shakllantirish sxemasi taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ekonometrik model, mehmonxona va umumiyy ovqatlanish, kompleks iqtisodiy tahlil, ko'rsatkichlar tizimi, sinergetik omillar, tahlillash tasnifining mezonlari.